**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI**
**OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**
**MIRZO ULUG'BEK NOMIDAGI O'ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI**

**B U Y R U Q D A N  K O' CH I R M A**

2024 yil "8" fevral № 01-43 Toshkent sh.

**O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirining 2024-yil 18-yanvardagi 16-sonli buyrug'i ijrosini ta'minlash to'g'risida**

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ma'muriy islohotlar doirasida oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar sohasida davlat boshqaruvini samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to'g'risida" 2023-yil 4-iyuldagi PQ-200 qarori 9-bandida belgilangan topshiriq ijrosini o'z vaqtida va samarali bajarilish hamda O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirining 2024-yil 18-yanvardagi 16-sonli buyrug'i ijrosini ta'minlash maqsadida:

**B U YU R A M A N:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ma'muriy islohotlar doirasida oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar sohasida davlat boshqaruvini samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to'g'risida" 2023-yil 4-iyuldagi PQ-200 qarori 9-bandi beshinchi xatboshisida belgilangan 2024-yilga mo'ljallangan xalqaro va respublika miqyosida o'tkaziladigan ilmiy va ilmiy-texnik tadbirlar ro'yxatini tasdiqlash to'g'risidagi topshiriq ijrosini bajarish hamda O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirining 2024-yil 18-yanvardagi 16-sonli buyrug'i rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Quyidagilar:

Universitetida 2024-yilda o'tkaziladigan xalqaro va respublika miqyosidagi ilmiy va ilmiy-texnik tadbirlar rejasi 1-ilovaga muvofiq;

Universitetida 2024-yilda o'tkaziladigan xalqaro va respublika miqyosidagi ilmiy va ilmiy-texnik tadbirlarning chora-tadbirlar rejasi 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. **Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor (Y.Ergashov)ga:**

Tadbirlarni ularga puxta tayyorgarlik ko'rish asosida va belgilangan muddatlarda yuqori saviyada o'tkazilishini ta'minlash yuklatilsin.

4. **Moliya va iqtisod ishlari bo'yicha prorektor (V.Yodgarov) hamda bosh hisobchi (B.Raxmonov)ga:**

belgilangan tadbirlarni o'tkazish bilan bog'liq barcha xarajatlar universitetning budjetdan tashqari mablag'lari hisobidan qoplanishini ta'minlash vazifasi yuklatilsin.

5. **Ilmiy tadqiqotlar va innovatsiyalar bo'limi boshlig'i (N.Aliyev)ga:**

tadbirlar yakunlanganidan keyin o'n kun muddatda tadbirlar ishiga oid hisobot va ma'lumotlar tadbirlarning natijadorligini baholash va umumlashtirilgan tahliliy

hisobotlarni tayyorlash uchun "anjumanlar.uz" maxsus platformasi orqali Innovatsion rivojlanish agentligiga taqdim etish;

tadbirlar yakunlanganidan keyin bir oy muddatda o'tkazilgan xalqaro va respublika miqyosidagi ilmiy anjumanlar, simpoziumlar, seminarlar va boshqa ilmiy hamda ilmiy-texnik tadbirlarning maqolalar to'plamlari "anjumanlar.uz" maxsus platformaga kiritib borish;

mazkur buyruq bilan tasdiqlangan rejadagi tadbirlarning sanasi yoki o'tkazish joyini o'zgartirish Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi bilan kelishgan holda amalga oshirish vazifalari yuklatilsin.

6. **Raqamli va axborot texnologiyalari markazi boshlig'i (U.Musurmanov)ga:**

Ilmiy tadqiqotlar va innovatsiyalar bo'limi tomonidan o'tkaziladigan ilmiy va ilmiy-texnik tadbirlar axborot xatlari va ma'lumotlarini universitetning veb saytiga joylashtirib borish vazifalari yuklatilsin.

7. **Fakultet dekanlari va anjuman ijrochilariga:**

ilovaga muvofiq o'tkaziladigan tadbirlarning dasturlarini ishlab chiqish va tasdiqlash;

tadbirlar yakunlangandan keyin bir hafta muddatda tadbirlar ishiga oid hisobot va ma'lumotlarni universitetning Ilmiy tadqiqotlar va innovatsiyalar bo'limiga taqdim etilishini;

belgilangan tadbirlarni O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014-yil 29-iyuldagi "Ommaviy tadbirlarni tashkil etish va o'tkazish tadbirlarini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 205-sonli qarori talablariga qat'iy amal qilingan holda o'tkazilishini ta'minlasin;

o'tkaziladigan xalqaro va respublika miqyosidagi ilmiy anjumanlar, simpoziumlar, seminarlar va boshqa ilmiy hamda ilmiy-texnik tadbirlarida chop etiladigan maqolalar sifatini oshirish maqsadida maqolalani ko'chirmakashlikka qarshi dasturlardan tekshirish;

xalqaro miqyosda o'tkaziladigan tadbirlar doirasida tashrif buyuruvchi olimlarni qabul qilish, qonunchilikda belgilangan tartibda amlga oshirish vazifalari yuklatilsin.

8. Belgilab qo'yilsinki, maqolalar to'plamlarida chop etiladigan maqolalar sifatiga anjuman rahbarlari va ijrochilari shaxsan javobgardir.

9. Mazkur buyruq ijrosining nazorati Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor (Y.Ergashov) zimmasiga yuklatilsin.

***Asos:*** *O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirining 2024-yil 18-yanvardagi 16-sonli buyrug'i.*

**Rektor** **I.Madjidov**

DEVONXONA

*Ўзбекистон Миллий университети ректорининг*
*2024-йил "8" даги*
*01-43 -сонли буйруғига 1-илова*

**Ўзбекистон Миллий университетида 2024 йилда ўтказиладиган халқаро, республика ва вазирлик миқёсидаги илмий ва илмий-техник анжуманлар**

**РЎЙХАТИ**

| № | Анжуман мавзуси | Анжуман тури | Ўтказиш жойи ва муддати |
|---|---|---|---|
| 1 | Рус сўз ясалишининг долзарб муаммолари | Халқаро | Тошкент ш., 20 январь |
| 2 | Психологиянинг замонавий тенденциялари ва истиқболлари. Профессор Эргаш Ғозиевич Ғозиев хотирасига бағишланган халқаро илмий-амалий конференция | Халқаро | Тошкент ш., 13 март |
| 3 | Тарихий объектлар ва табиий масканлар уйғунлиги асосида Ўзбекистоннинг туристик салоҳиятини ривожлантиришнинг асосий йўналишлари ва истиқболлари | Халқаро | Тошкент ш., 10-11 апрель |
| 4 | Замонавий дунёнинг социомаданий манзараси ва ижтимоий тизимлар трансформацияси | Халқаро | Тошкент ш., 20 апрель |
| 5 | Рус тили ва адабиёти ҳозирги замонда | Халқаро | Тошкент ш., 24 апрель |
| 6 | Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб масалалари ва замонавий тенденциялари | Халқаро | Тошкент ш., 24 апрель |
| 7 | Географик тадқиқотларда замонавий геоинформацион картография, масофадан зондлаш методлари ва технологияларининг роли | Халқаро | Тошкент ш., 24-26 апарель |
| 8 | Ўзбекистонда тарихий манбашунослигининг долзарб масалалари | Халқаро | Тошкент ш., 25 апрель |
| 9 | Мирзо Улуғбекнинг жаҳон илм-фан тараққиётига қўшган ҳиссаси | Халқаро | Тошкент ш., 22 май |
| 10 | Молия-кредит тизимини стратегик ривожлантиришнинг муаммолари ва устувор йўналишлари | Халқаро | Тошкент ш., 25 апрель |
| 11 | Барқарор ривожланиш мақсадлари: хорижий тажриба ва Ўзбекистон амалиёти | Халқаро | Тошкент ш., 25 апрель |
| 12 | Компьютер лингвистикасининг замонавий технологиялари | Халқаро | Тошкент ш.,19-20 май |

| | | | |
|---|---|---|---|
| 13 | Журналистика ва оммавий коммуникациялар XXI асрда: ривожланиш тенденциялари, таълим ва технологиялар | Халқаро | Тошкент ш., 16 май |
| 14 | Глобаллашув жараёнида диаспорологиянинг тараққиёти | Халқаро | Тошкент ш., 19-20 май |
| 15 | Ўзбекистонда медиатаълим: муаммолар, ечимлар ва истиқболлар | Халқаро | Тошкент ш., 19-20 май |
| 16 | Физикада фундаментал амалий тадқиқотлар | Халқаро | Тошкент ш., 24-25 май |
| 17 | Марказий Осиё маданияти тарихи ва тарихшунослиги масалалари | Халқаро | Тошкент ш., 30 май |
| 18 | Туризмни ривожлантиришнинг ижтимоий, иқтисодий, ҳуқуқий-институционал асосларини такомиллаштириш. | Халқаро | Тошкент ш., 17 июнь |
| 19 | Адабий таълим методологияси: халқаро тажриба ва илмий ҳамкорлик. | Халқаро | Тошкент ш., 29 сентябрь |
| 20 | Замонавий географик тадқиқотларда интеграция: муаммолар ва ечимлар | Халқаро | Тошкент ш., 11-12 октябрь |
| 21 | Ўзбек тили таълими ва тадқиқи | Халқаро | Тошкент ш., 17-18 октябр |
| 22 | Компютер илимлари ва муҳандислик технологиялари | Халқаро | Тошкент ш., 18-19 октябрь ЎзМУ Жиззах филали |
| 23 | Стохастик анализ | Халқаро | Тошкент ш., 21-23 октябрь |
| 24 | Математик физиканинг ноклассик тенгламалари ва уларнинг тадбиқлари (Non-classical equations of mathematical physics and their applications.) | Халқаро | Тошкент ш., 24-26 октябрь |
| 25 | Ўзбекистонда геодезия, картография ва кадастр соҳаларининг ҳозирги ҳолати ва ривожланиш истиқболлари. | Халқаро | Тошкент ш., 6-7 декабрь |
| 26 | Ёш филология - 2024 | Республика | Тошкент ш., 28 февраль |
| 27 | Замонавий педагогика ва психологиянинг долзарб масалалари | Республика | Тошкент ш., 27 март |
| 28 | Физика фанининг ривожида истеъдодли ёшларнинг ўрни | Республика | Тошкент ш., 5 апрель |
| 29 | Янги Ўзбекистон: Фан, таълим ва инновация | Республика | Тошкент ш., 13 октябрь ЎзМУ Жиззах филали |
| 30 | Замонавий тилшунослик ва таржимашуносликнинг долзарб муаммолари | Республика | Тошкент ш., 26 апрель |
| 31 | Шарқ алломалари илмий меросининг жаҳон илм-фанида тутган ўрни | Республика | Тошкент ш., 12 май |
| 32 | Замонавий инновация тадқиқотларнинг долзарб муаммолари ва ривожланиш тенденциялари: учимлар ва истиқболлар | Республика | Тошкент ш., 17-18 май ЎзМУ Жиззах филали |
| 33 | Замонавий органик кимё: ютуқлар, муаммолар ечимлар | Республика | Тошкент ш., 20-21 сентябрь |